



RAQAMLI DAVRDA RADIO VA TELEVIDENIYANING O'RNI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY MEDIA QIYOSI.

*Abdusamatova Zaxro Umid qizi – Nizomiy nomidagi O'zMPU Professional
ta'lim yo'nalishi I-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Bu maqolada asosan an'anaviy va zamonaviy media haqida aytib o'tilgan. Shuningdek, raqamli davr, radio va televideniya haqida ham qisqacha to'xtalib o'tilgan. An'anaviy va zamonaviy media o'zi nimaligi va ularga nimalar kirishi haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqolada raqamli davrda radio va televideniening o'rni hamda an'anaviy va zamonaviy media vositalari qiyosiy jihatdan o'rganiladi va raqamli media vositalari orqali axborot tarqatish jarayonlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlari: media, raqamli davr, radio, televideniya, an'anaviy media, zamonaviy media.

Аннотация: Эта статья в основном посвящена традиционным и современным медиа. Также кратко затрагивается цифровая эпоха, радио и телевидение. Традиционные и современные медиа получают информацию о том, что это такое и что в них входит. В этой статье рассматривается роль радио и телевидения в цифровую эпоху, а также традиционные и современные медиа, а также процессы распространения информации через цифровые медиа.

Ключевые слова: медиа, цифровая эпоха, радио, телевидение, традиционные медиа, современные медиа.

Annotation: This article mainly focuses on traditional and contemporary media. It also briefly touches upon the digital age, radio and television. Traditional



and modern media are provided with information about what they are and what goes into them. This article examines the role of radio and television in the digital era, as well as traditional and contemporary media, and considers the processes of information dissemination through digital media.

Keywords: media, digital age, radio, television, traditional media, contemporary media.

Raqamli media deyilganda hammaning aqliga har hil fikrlar keladi. 21 asrda “media” tushunchasi ommaviy axborot vositalaridan boshlab yangi media, an’anaviy vositalarda tortib zamonaviy raqamli media shakllarigacha bo’lgan juda keng sohani qamrab oladigan ma’noga egabo’ldi. “Media” deganda ongimizga turli misollar keladi, hatto biz kundalik hayotimizda bir nechta media turlaridan foydalanamiz. Ammo bu tushunchani qisqa va aniq qilib tushuntirish biroz murakkab. Raqamli davrda radio va televideniyaning o’rni juda katta. O’zi raqamli davr bu insoniyat tarixidagi shunday bosqichki, unda axborot texnologiyalari, internet, kompyuterlar va raqamli qurilmalar kundalik hayotning, iqtisodiyotning, ta’limning va muloqotning ajralmas qismi. Bu davr an’anaviy (analog) usullardan raqamli (diskret) texnologiyalarga o’tish bilan xarakterlanadi. Unda axborot raqamli shaklda yaratiladi, saqlanadi va uzatiladi. Manuel Castells o’zining “The Rise of the Network Society” asarida zamonaviy jamiyatni “tarmoq jamiyati” sifatida ta’riflab, unda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari hal qiluvchi o’rin egallashini ta’kidlaydi. Raqamli media” deganda biz har qanday media kontentni tushunamiz, ya’ni raqamli vositalar yordamida yaratilgan materillar (raqamli matnlar, raqamli audio yozuvlar, raqamli video). Raqamli media kontentni yaratish va tarqatishda asosiy vosita texnik qurilmalardir (smartfon, kompyuter va boshqalari). Agar biz radio va televideniye kelsak “Radio – (lotincha nurlanaman, nur tarqatmoq). Radioning ixtirosi tarixan bir nechta olimlarning nomi bilan bog’liq bo’lsa-da, ko’pincha 1895-yilda birinchi bo’lib radiopriyomnikni namoyish etgan rus



fizigi Aleksandr Popov yoki 1896-yilda simsiz telegraf patentini olgan italiyalik Guglielmo Markoni asosiy ixtirochilar deb hisoblanadi. Radio tarixan eng katta musiqa tarqatuvchi vosita sifatida qaraladi. Radio orqali nafaqat musiqa balki axborot, musiqa va ko'ngilochar kontentlar ham eshitish mumkin va zamon o'zgarib televideniye tizimi shakllandi. Televideniya (grekcha *tele* –uzoq va lotincha *video* –ko'raman) – harakatlanayotgan tasvir va tovushni radioelektron vositalar yordamida masofadan uzatish hamda qabul qilish tizimidir. Bu ommaviy axborot vositasi bo'lib, axborot, ta'lim va ko'ngilochar kontentni keng omma uchun translyatsiya qiladi. Televideniyaning bir kishi emas balki, bir necha ixtirochi tomonidan yillar davomida takomillashtirib kelyapti. Mexanik televizorni 1920-yillarda shotlandiyalik Jon Berd yaratgan bo'lsa, zamonaviy elektron televizorning yaratilishida Boris Grabovskiy (Toshkentda, 1928-yil), Filo Farnsvort va Vladimir Zvorikin kabi olimlarning hissasi katta. Maqolaning asosiy maqsadi an'anaviy hamda zamonaviy mediani qiyoslashdir. An'anaviy media vositalari — uzoq vaqt davomida jamiyatning asosiy axborot manbalaridan bo'lib kelgan. Denis McQuail o'zining *McQuail's Mass Communication Theory* asarida an'anaviy OAVni markazlashgan, professional va nazorat ostidagi axborot tizimi sifatida ta'riflaydi. Bu yerda axborot asosan bir yo'nalishda orqali ommaga uzatiladi. An'anaviy mediaga nafaqat radio va televidenie balki gazeta va jurnallar ham kiradi. Chunki bular raqamli texnologiyalar paydo bo'lishidan avval paydo bo'lganligi sababli va ular ommaga tarqatilishidan avval professional tahrir va nazoratdan o'tishi sababli an'anaviy media vositalari deyiladi. An'anaviy OAV eshittirish va tarqatish nuqtai nazaridan keng qamrovga ega. Masalan, telekanallar, radiostansiyalar va gazetalar keng auditoriyani, jumladan mahalliy, milliy va hatto xalqaro bozorlarni qamrab olishi mumkin. Biroq, foydalanish imkoniyati format bilan cheklangan; masalan, ma'lum bir vaqtda ma'lum bir kanalni sozlashingiz yoki gazeta yoki jurnalning kundalik yoki haftalik sonini kutishingiz kerak. Raqamli media — internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarni o'z ichiga oladi. Raqamli mediaga Instagram,



telegram va WhatsApp kabi ilovalar kiradi, shuningdek bu kabi ilovalar juda ko'p. Manuel Castells o'zining *The Rise of the Network Society* asarida zamonaviy jamiyatda axborot tarmoqlar orqali tarqalishini ta'kidlaydi. Bu esa medianing tuzilishini tubdan o'zgartirdi. Raqamli davr o'zi bu axborot va texnologiyalar asosan raqamli shaklda yaratilib, saqlanib, uzatilishiga nisbatan aytiladi. Raqamli davr hozirda juda keng tarqalgan va odamlar bu texnologiyalardan har kuni foydalanishadi. Raqamli media ikki tomonlama aloqani ta'minlaydi. Ijtimoiy media platformalari, bloglar va onlayn forumlar foydalanuvchilarga tarkibni sharhlash, almashish va muhokama qilish imkonini beradi, bu esa hamjamiyat hissini yaratadi va iste'molchi tajribasini oshiradi. Ushbu interaktivlik raqamli mediani yanada jozibador va shaxsiy qiladi, shuningdek, korxonalariga iste'molchilarning afzalliklari, fikrlari va xatti-harakatlari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Raqamli axborot vositalarining yana bir belgilovchi xususiyati uning interaktivligidir. Raqamli platformalar bilan foydalanuvchilar kontentni passiv oluvchilar emas; ular u bilan shug'ullanishlari, baham ko'rishlari, sharhlashlari va hatto yaratilishiga ta'sir qilishlari mumkin. Ushbu interaktivlik darajasi an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan sezilarli farq qiladi, bu erda aloqa odatda bir tomonlama. Misol uchun, televidenie reklamasi yoki radio reklamasi real vaqtda fikr-mulohaza yoki o'zaro aloqada bo'lishga imkon bermaydi. Ya'ni biz o'z fikrlarimizni ular bo'lisha olmaymiz. Shu orqali ham raqamli media va an'anaviy mediani farqlashimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda raqamli media keng ko'lamda va har tomonlama o'rganishning ahamiyati katta. Madaniy tajriba shakllanish tizimi o'zgarib bormoqda. Ammo shunga qaramay an'anaviy mediayadan yani gazeta, jurnal, radio va televideniyadan foydalanib kelinmoqda. Biroq ularni nafaqat an'anaviy media deb atash balki ularning bir yo'nalishli axborot uzatish tizimi desak ham bo'ladi. Chunki bu an'anaviy mediada faqat bir taraflama ma'lumot uzatiladi. Biz ko'p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar esa zamonaviy (raqamli) mediaga kiradi. Chunki bular orqali tez xabat tarqatish mumkin va ularni



ikki taraflama ham foydalanish mumkin. Hozirda jamiyatda yetakchi o'rin egallagani bu raqamli mediadir. Bu raqamli mediadan yoshu katta birdek foydalanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Castells, M. *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell, 1996.
2. Lisenkova A.A., Melnikova A.Yu. **“Tsifrovye media kak zerkalo sovremennoy kultury”**, 2018. CyberLeninka.
3. İstanbul Gelişim Üniversitesi. Dijital Medya Nedir. <https://iisbf.gelisim.edu.tr/tr/akademik-bolum-yeni-medya-ve-iletisim-haber-Dijital-Medya-Nedir>
4. IMCWire. *What Differentiates Digital Media from Traditional Media*. <https://imcwire.com/uz/what-differentiates-digital-media-from-traditional-media/>
5. **“Radioning haqiqiy asoschisi kim?”** Ziyouz portal maqolasi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/radioning-haqiqiy-asoschisi-kim>
6. **“Televideniye.”** O‘zbekcha Vikipediya (onlayn ensiklopediya). <https://uz.wikipedia.org/wiki/Televideniye>